

О‘ЗBEKISTONDA ZAMONAVIY KO‘NGIL OCHAR SAVDO MAJMUASINING SHAKLLANISH TAMOYILLARI

Abdinazarov Kozim Zaripovich

Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti

Bino va inshootlar arxitekturasi yo‘nalishining

2-kurs magistranti

Abstract: construction of any buildings and artificial structures, residential, public, industrial and agricultural buildings. it is the basis of bridges, bulk buildings, pipelines and structures. The main part of the costs for the construction of buildings and structures falls on structures. This article discusses the principles of the formation of a modern shopping and entertainment complex in Uzbekistan.

Keywords: Modern, shopping complex, entertainment, construction, efficiency, design.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda zamonaviy ko‘ngil ochar savdo majmuasining shakllantirilish amalga oshirilayotgan ishlar katta hajmdagi kapital qurilishlar, qurilish konstruksiyalaridan samarali foydalanish rivojining juda tez jadallashuviga turtki bo‘ldi — konstruksiyalarning turlari va ulardan tayyorlanadigan xomashyolar to‘xtovsiz takomillashib bormoqda. Shu boisdan ularni hisoblash, loyihalash va tiklash usullari ham takomillashtirilmoqda.

Qurilishning samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri — uning konstruktiv sxemalarini ixchamlashtirish va konstruksiyalarni tiplashtirish asosida, iloji boricha ko‘proq tayyorligini oshirish bo‘lsa, ikkinchisi — bu imoratlarni raqobatbardosh, yuqori sifatli, shinamva vazifaviy qulay bo‘lishini ta‘minlashdir. Shu tufayli mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni qo‘llash bilan bir qatorda qurilish maydonchalarida bajariladigan ishlarga keng imkoniyatlar ochib berildi.

O‘zbekistonda zamonaviy ko‘ngil ochar savdo majmuasining binolari quyidagi ko‘rsatkichlarga binoan bir-biridan farq qiladilar:

1. Vazifasiga muvofiqligi, ya‘ni bino qaysi jarayon (maqsad)ga mo‘ljallangan bo‘lsa, u shu jarayon talabiga to‘liq javob berishi kerak (yashash uchun, mehnat qilish uchun qulay, dam olishga moslashgan va h.k.).

2. Texnik tomondan muvofiqligi, ya‘ni bino kishilarni tashqi ta‘sirlar (past yoki yuqori harorat, yog‘ingarchilik, shamol va h.k.)dan to‘la asrashi, mustahkam va ustivor bo‘lishi, ekspluatatsiya sifatlarini uzoq vaqtgacha saqlashi lozim.

3. Bino ko‘rinishi me‘morchilik va badiiylik talablariga mos holda tanlanishi, uning tashqi (eksterper) va ichki (interper) ko‘rinishi chiroyli, shinam, atrof-muhit bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

4. Iqtisodiy jihatdan qulayligi, ya‘ni bino va inshoot qurilishida mehnat sarfini kamaytirish, qurilish ashyolarini va vaqtni tejash ko‘zda tutiladi.

O‘zbekistonda zamonaviy ko‘ngil ochar savdo majmuasi loyihachisining xatosi, tashqi yuklar, qurilish konstruksiyalarining holati va ishlab chiqarish hamda ekspluatatsiya sharoitlari haqidagi ma‘lumotlarning etarli emasligi, tabiiy yemirilish va ayrim qurilish materiallarining fizik-mexanik xossalari hamda ulaming real yemirilishi jadalligi haqidagi eksperimental ma‘lumotlarning yetishmasligi (yoki umuman bo‘lmasligi), bino funksiyasini noto‘g‘ri modellashtirish va boshqa turli salbiy omillarni hisobga olinmasligi loyihalash jarayonida yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar hisoblanadi.

Yangi binoning qurilishi lozim bo‘lsa, avval qurilish rejalashtiriladigan tumanda mikroseysmo-rayonlashtirish xaritasiga asosan shu joy qanday zilzilaviy ko‘rsatkichga keltirilganligi aniqlanib, shu ko‘rsatkichga mos konstruktiv yechim tanlash, yerosti tuprog‘ini qo‘shimcha o‘rganish va uni tayyorlash, imoratni loyihalashda ma‘lum ratsional forma tanlash, seysmik talablarga mos me‘moriy-konstruktiv yechimlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, zilzilaga qarshilik ko‘rsatadigan bir necha tadbirlar, ya‘ni deformatsiya choklarini kiritish, imorat fazoviy birligini ratsional taqsimlash, konstruksiyalar birlashgan tugunlarni zilzilabardoshligini ta‘minlash va h.k. Bunday tadbirlarga, aksariyat, katta xarajat qilishga to‘g‘ri keladi va tajribaga binoan har bir ball seysmik zilzilaga qarshi tadbirlar uchun binoning narxidan 8—12% qo‘shimcha xarajatlar qilishga to‘g‘ri keladi.

Respublika xususiyatlaridan biri bo‘lmish tuproq namligining yuqoriligi, yerosti suvlarining yuqori yurishi va tuproqlarning cho‘kuvchanligi. qolaversa, yerosti tuzlarining ko‘pligi qurilish amalivotiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu murakkablikni yengish uchun ma‘lum tadbirlar, yangi poydevorlar suvlarni qochiruvchi yerosti quvurlar, deformatsiya choklari kabi choralar ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Adabiyotlar

1. Атлас деревянных конструкций. Г.Гётц и др., пер. с нем. - М.: «Стройиздат», 1985.
2. Буга П.Г. Гражданские, промышленные и сельскохозяйственные здания. — М. «Высшая школа», 1987.
3. Qambanov X. U. Turar-joy binolarining konstruktiv elementlari. (O‘quv qo‘llanma a.) — T., « O‘qituvchi», 1992.
4. QMQ 2.03.08-98 «Yog‘och konstruksiyalari». O‘zR Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. — T., 1998